



BOLALARDA OG‘IZ BO‘SHLIG‘I SHILLIQ QAVATI KASALLIKLARI

Isaeva Muqaddaxon Maxammadovna

ADTI Bolalar stomatologiyasi kafedrası assistenti

+998932542552

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalarda uchraydigan og‘iz bo‘shligi shilliq qavati kasalliklari tasnifi hamda ayrim kasalliklarning kelib chiqishi, klinikasi va davolash chora tadbirlari haqida qisqacha mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar

Stomatit, travma, tasnif, birlamchi element, ikkilamchi element, pufak, pufakcha, yara, herpes, kandidoz.

Hozirgi zamon tabobati, jumladan terapevtik stomatologiya jadal suratlar bilan rivojlanmoqda. Yangi diagnostik uskunalar yaratilib, amaliyotga tadbiriq etilmoqdaki, bulardan foydalanayotgan shifokor-stomatolog bir necha daqiqada patologik o‘choqning joylashgan joyi va xarakterini aniqlamoqda, zamonaviy, samaradorligi yuqori bo‘lgan davolash usullari ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, davolash standartlari yangi, hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan dori vositalari bilan boyitilib, raqobatbardosh jarrohlik usullari joriy etilmoqda. Bularning barchasi o‘lkamizda terapevtik stomatologiya fanini jahon andozalariga mos ravishda rivojlanishi uchun ulkan istiqbollari ochmoqda.

Og‘iz bo‘shligi shilliq pardasi kasalliklari xilmaxil. Shifokorlik amaliyotida uchraydigan bir necha yuz kasalliklarda og‘iz shilliq pardasi shikastlanadi. Afsus, terapevtik stomatologiya faniga taalluqli bo‘lgan kasalliklarning aniq ro‘yxati yo‘q. Shu sabab bo‘lsa kerak, hozirgi kunga qadar og‘iz shilliq pardasi kasalliklarining yagona tan olingan tasnifi yo‘q. Bunga bir tomondan odam a‘zo va tizimlari kasalliklarida og‘iz shilliq pardasida sodir bo‘ladigan patologik jarayonlarning turli tumanligi va birbirlariga o‘xshashligi sabab bo‘lsa, ikkinchi tomondan og‘iz shilliq pardasining shikastlanishiga olib keladigan asosiy kasalliklar etiopatogenezini hamma vaqt aniqlash imkoni yo‘qligidir.

Bolalarda og‘iz bo‘shligi shilliq pardasida katta yoshdagi kishilardagidek qator, rang-barang kasalliklar uchraydi. Bu kasalliklarni barchasi ko‘pchilik hollarda umumlashgan «stomatit» termini bilan ifodaladi.

Bolalar yoshida og‘iz bo‘shligi shilliq qavatida uchraydigan kasalliklarni ma‘lum turlarga, guruhlarga bo‘lishda uni tasnif qilish jarayonida ularni keltirib chiqaruvchi sabablarga tayanib ish tutish maqsadga muvofiqdir.

Og‘iz bo‘shligi kasalliklari tasnifi qabo‘l qilingan va ular quydagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Travmalar natijasida yuzaga keladigan og‘iz bo‘shligi shilliq qavatining jarohatlar.
2. Infeksiya (mikroblar, zamburuglar, viruslar) ta‘sirida yuzaga keladigan og‘iz bo‘shligi shilliq qavati kasalliklari.



3. Alohida (spesifik) infeksiyalar ta'sirida yuzaga keladigan kasalliklari.
4. Organizmning o'ta sezuvchanlik (allergiya) xususiyatlari bilan bog'liq o'zgarishlar.
5. Og'iz bo'shlig'ida dori-darmonlarni qabo'l qilinishi bilan bog'liq bo'lgan jarohatli o'zgarishlar.
6. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida organizmning ba'zi-bir a'zosi yoki sistemalardagi kasalliklari bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar.
7. Til kasalliklari.
8. Lablar sohasida sodir bo'ladigan kasalliklar

Bizning kundalik hayotimizda tez tez uchrab turadigan kaslliklardan biri bu Stomatitdir.

Stomatit - bu og'iz shilliq pardasining yallig'lanishidir. To'satdan yoki virusli infeksiya fonida bola hatto eng sevimli ovqatini yeyishdan bosh tortadi, harorati ko'tariladi, so'lagi odatdagidan 2-3 baravar kuchliroq oqadi.

Bunday muammolarda pediatr yoki stomatologga murojaat qilishi mumkin. Dastlabki tekshiruv va davolash bo'yicha pediatrdan maslahat olish mumkin, ammo takroriy yoki doimiy stomatit bo'lsa, tish shifokoriga uchragan ma'qul.

Stomatit — og'iz shilliq qavatining virusli, bakterial yoki zamburug'li infeksiyasi hisoblanadi. Stomatit keng tarqalgan virusli infeksiya, virusli infeksiya asoratlari, shikastlanish natijasi (tilni tishlab olish) yoki bolaning toza bo'lmagan turli narsalarni og'ziga solishi oqibatida kelib chiqadi.

Stomatitni davolash antiseptiklar, antibiotiklar, zamburug'larga qarshi va davolovchi vositalar bilan og'iz bo'shlig'ini chayish orqali amalga oshiriladi. Stomatit yuzaga kelganda qilinadigan birinchi ish, hatto shifokor bilan maslahatlashishdan oldin bolaga og'riq qoldiruvchi dori («Ibuprofen» yoki «Parasetamol») berishdir. Tekshiruvdan so'ng stomatitning xususiyatiga asoslanib, shifokor zarur bo'lgan yallig'lanishga qarshi, antibakterial yoki zamburug'larga qarshi stomatologik gel yoki maz shaklidagi vositalarni tavsiya qiladi.

Bundan tashqari, stomatitda, antiseptik eritmalar bilan og'izni tez-tez chayish kerak. Hali og'iz chayishni (og'ziga suyuqlik olib tupurishni) bilmagan juda yosh bolalarda antiseptiklarni lunjiga tomizish yoki shilliq qavatni antiseptik eritma bilan ehtiyotkorlik bilan artish mumkin.

Shuningdek, stomatit bo'lgan bolaning ovqatlanishiga alohida e'tibor berishni talab qilinadi. Agar bola ko'krak suti bilan oziqlanadigan bo'lsa, stomatit uchun asosiy oziq ona suti bo'ladi. Kattaroq bolalar uchun ovqatni suyuq/pyure shaklida, bola uchun qulay bo'lgan haroratda bergan ma'qul.

To'g'ri tanlangan davolanish natijasida bolaning holati terapiya boshlangandan keyingi dastlabki 24-48 soat ichida yaxshilanadi va 5-7 kun ichida stomatit butunlay yo'qoladi.

Yosh bolalarda stomatitning oldini olish juda qiyin. Birinchidan, bolalar hamma narsani og'ziga soladi va bu ularning rivojlanishi uchun ham talab qilinadi, bunga to'sqinlik qilishning hojati yo'q. Ikkinchidan, bolalar tez-tez shamollaydi, stomatit ko'pincha O'RVI oqibatida paydo bo'ladi.



ResearchGate



TOGETHER WE REACH THE GOAL

IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245

VOLUME 7, ISSUE 2, 2024

Uchinchidan, tishlar chiqish paytida stomatit tishlarni agressiv ishlatish natijasida shilliq qavatdagi shikastlanishlar fonida paydo bo'ladi.

Shu sababli ota-onalarga faqat birinchi tish chiqqan paytdan boshlab har kuni bolaning tishlarini yuvish va stomatolog ko'rigidan muntazam ravishda o'tish tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. David A. Mitchell An Introduction to Oral and Maxillofacial Surgery, second edition (2015), bet 278
2. Pediatric dentistry- Richard Welbury, Monty Duggal. 2014., S. 457-468, 37-45
3. Dentistry of child and adolescent Ralph McDonald, Jeffrey A. Dean, 2014., S. 453- 460
4. <https://daryo.uz/k>
5. <https://e-library.sammu.uz/ru>



WORDLY
KNOWLEDGE